

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bir semantik maydonda leksik birliklar bilan ifodalangan detallarning takroriy ko'rinishi semantik to'yinganlikni amalga oshiradi. Matnning turli bo'limlarida takrorlanib kelayotgan detal matnni bir butunlikka bog'labgina qolmay, eng muhimi matnning semantik rivojlanishini ham bajaradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Куронов Д ва бошқалар. Адабиётшнослик луғати. – Тошкент, 2013. – Б.88.
2. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1986. – Б.192
3. Березняк.М. А. Типы и функции художественной детали в англоязычной прозе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук / М.А. Березняк - Одесса, 1986. -21 с.
4. ГузарЗ.П. Художественная деталь в произведениях Ивана Франко бориславского цикла: Автореф. дис.... канд. филол. наук / З.П. Гузар. - Львов, 1970.

Xolmatova Odinaxon Uktamovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Farg'ona davlat universiteti ORCID -0009-0008-9381-7525

Odinaxolmatova83@gmail.com



O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA KONTEKSTUAL ANTONIMLARNING IDROK VA TALQIN MASALALARI

<https://zenodo.org/records/18728955>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida kontekstual antonimik birliklarning idrok etilishi va talqin qilinishining lingvistik asoslari tahlil qilinadi. Maqollardagi kontekstual antonimlar semantik qatlamlar orqali qanday ma'no hosil qilishi, ularning xalq tafakkuri va til madaniyati bilan bog'liqligi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari kontekstual antonimiya tushunchasining lingvokognitiv yondashuvda yoritilishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek xalq maqollari, kontekstual antonimiya, idrok, talqin, semantika, lingvokognitiv tahlili

PERCEPTUAL AND INTERPRETATIVE ASPECTS OF CONTEXTUAL ANTONYMS IN UZBEK FOLK PROVERBS

Abstract: This article analyzes the linguistic foundations of the perception and interpretation of contextual antonymic units in Uzbek folk proverbs. It examines how contextual antonyms in proverbs generate meaning through semantic layers and explores their connection with folk cognition and linguistic culture. The findings of the study contribute to the interpretation of the concept of contextual antonymy within a linguocognitive framework.

Key words and expressions: uzbek folk proverbs, contextual antonymy, perception, interpretation, semantics, linguocognitive analysis

ПРОБЛЕМЫ ВОСПРИЯТИЯ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ КОНТЕКСТУАЛЬНЫХ АНТОНИМОВ В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические основы восприятия и интерпретации контекстуальных антонимических единиц в узбекских народных пословицах. Рассматривается, каким образом контекстуальные антонимы в пословицах формируют значение через семантические слои, а также изучается их связь с народным мышлением и языковой культурой. Результаты исследования способствуют освещению понятия контекстуальной антонимии в рамках лингвокогнитивного подхода.

Ключевые слова и выражения: узбекские народные пословицы, контекстуальная антонимия, восприятие, интерпретация, семантика, лингвокогнитивный анализ

Kirish.

Til — inson tafakkurining eng muhim vositasi bo'lib, milliy madaniyat, dunyoqarash va axloqiy qadriyatlarning uzviy aksidir. Xalq maqollari esa milliy tafakkur va tilning eng ixcham va obrazli shaklida ifodalanishi bo'lib, ularning semantik tuzilishi ko'pincha antonimik munosabatlار orqali boyitiladi. Qarama-qarshi tushunchalar fikrni yanada aniq, tushunarli va ta'sirchan qiladi.

Antonim birliklar o'z navbatida maqolning mazmuniy strukturasida yetakchilik qiladi. Maqol hajman sinqiq bo'ladi, ana shunday ixchamlik maqollarda antonimlarning qo'llanishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Avvalo, antonym birliklar haqida biroz to'xtalsak, "Antonimiya" so'z juftligida muayyan leksik ma'noning o'zaro qarama-qarshi bo'lishidir. Ya'ni o'zaro qarama-qarshi ma'noga ega so'z juftligidagi antonim deyiladi. [112-113].

Kognitiv lingvistikaning markaziy konsepsiyasi bo'lgan bilish zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan kognitiv jarayon yoki psixik jarayonlarning yig'indisi (aqliy, kogitativ) - dunyoni idrok etish, atrofda sodir bo'layotgan narsalarni oddiy kuzatish, turkumlash, fikrlash, nutq, xizmat ko'rsatish sifatida tushuniladi. Har xil sezgi-idrok kanallari orqali odamga tashqaridan kelgan yoki shaxs tomonidan allaqachon qabul qilingan va qayta talqin qilingan axborotni qayta ishlashni bildiradi. Idrok insonning aqliy, intellektual qobiliyatlarining namoyon bo'lishi, uning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati bilan, insonning o'zini va uning atrofidagi dunyoda o'z o'rnini anglashi, o'zini va boshqalarni baholash, o'ziga xos xususiyatni yaratish qobiliyati bilan bog'liq. Bularning barchasi insonning oqilona va mazmunli xulq-atvorining asosini tashkil qiladi. [245].

Kontekstual antonimik birliklar xalq tafakkuri va til madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ma'no interpretatsiyasi situativ va kognitiv omillarga tayanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Xalq maqollarida antonim birliklarning ifodalanishiga doir tadqiqotlar yetarlicha tahlil qilingan, lekin shunday birliklar ham borki, maqollarda kam holatlarda uchrasa ham, ular qarama-qarshilikni yuzaga chiqarishda va o'zaro zid bo'lmagan leksik birliklarni zid qo'yishda muhim o'rin egallaydi. Bular kontekstual antonimlardir.

Kontekstual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. [171].

U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida kontekstual antonimlar haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Leksik ma’no bilan leksik qo‘llash orasidagi antonimik munosabat kontekstual antonimiya deb nomlanishi mumkin. Bunday antonimiya har gal nutqning o‘zida voqe bo‘ladi, nutqdan tashqarida yo‘qqa chiqadi, ko‘pincha individual nutqqa xos bo‘ladi. [56-57].

Natija va muhokama.

Kontekstual antonimlar holat va situatsiyaga qarab qarama-qarshi ma’no hosil qiladi. Masalan, “Gap desang, qop-qop, Ish desang – betob”.

Ushbu maqolda gap bilan ish leksemalari garchi o‘zaro antonim leksemalar bo‘lmasa ham qarama-qarshilikni ifodalagan.

To‘g‘riga balo yo‘q, Yomonda hayo yo‘q maqolida esa to‘g‘ri va yomon leksemalari zid qo‘yilgan. To‘g‘ri so‘zi o‘zbek xalqi orasida yaxshi, o‘z maqsadi yo‘lida og‘ishmaydigan, adolatli insonlarga nisbatan qo‘llanadi, shuning uchun yomon leksemasi bilan antonimik munosabatga Kirish.a olgan.

Dono – bir joyda, Dangasa – har joyda maqolida esa dono va dangasa so‘zlari qarama-qarshi ma’noli birliklar sifatida idrok etiladi. Aslida kontekstdan tashqarida ular antonimlar emas. Dono so‘zi ma’nosi aqlli, mehnatsevar, tirshqoq inson sifatida ifodalangan va bu o‘quvchiga dangasa so‘ziga nisbatan ijobiy bo‘yoqqa egaligi anglashilib turadi.

Ish desa, ayyor, Osh desa, tayyor kabi maqolda ish va osh leksemalari zidlikni namoyon qiladi. Mehnat qilishga bo‘yni yov bermaydigan, lekin dam olishga, tayyor qilingan narsalarga doim shay turuvchi dangasa insonlarga nisbatan aytilgan ushbu maqolda bir paytning o‘zida ayyor va tayyor so‘zlari ham kontekstual antonimiya hodisasini yuzaga chiqargan. Ayyor so‘zi mug‘ombir, yolg‘onchi ma’nolarini bildiruvchi so‘z sifatida qo‘llanadi, Bu maqolda ko‘proq ishyoqmas, bahona topuvchi sifatida mehnatsevar insonlarga nisbatan zidlikni idrok qilish mumkin.

Ishlagan tishlar, Ishlamagan kishnar maqolida ham kontekstual antonimiya hodisasini kuzatish mumkin. Tishlar va kishnar leksemalari o‘zaro antonim birliklar bo‘lmasa ham, ushbu maqolda insonlar tomonidan zidlikni yuzaga chiqaruvchi birliklar sifatida tushuniladi. Bu yerda kishnar leksemasini ko‘chma ma’noda qo‘llanganligini ko‘rish mumkin. Kishnash otlarga xos harakat bo‘lib, qachonki och qolgan paytda kishnashi bizga ma’lum. Demak, inson mehnat qilmasa, mashaqqatlarga chiadamasa hayotda qiynalib qolishini shu o‘xshatish bilan ifodalab bergan. Buni aqliy tafakkur bilan anglash qiyin emas. O‘zbeklarga xos bo‘lgan udum, ya’ni ot-uy hayvoni, u bilan bog‘liq holatlarni barcha o‘zbek xalqi idrok qiladi va ko‘chma ma’noda qo‘llangan leksemani tushuna oladi.

Bunday misollarni quyidagi maqollardan ham ko‘rish mumkin: “Ish qolsa – mehnat, Osh qolsa- davlat”, “Dushmaningni musht bilan urma, osh bilan ur”, Yer to‘ydirar, o‘t kuydirar”, “Dushman ba’zan kuldirar, O‘ng‘ay topsa, o‘ldirar”. Ushbu misollardagi mehnat-davlat, musht-osh, to‘ydirar-kuydirar, kuldirar-o‘ldirar so‘zlari kontekstad o‘zaro qaramq-qarshilikni yuzaga chiqargan.

Xulosa.

Har bir millatning o‘ziga xos madaniyat asosida maqollari ham shakllanadi va shu millatning madaniy merosiga aylanadi. Maqollarda asosan o‘sha xalqning urf - odatlari, an‘analari, quonchi va qayg‘usi o‘z aksini topadi. Boshqa xalqlarning maqollari tarjima qilinganda, milliylikka alohida e’tibor berilish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga xalqlar o‘rtasida do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat

qiladi. Shuningdek, o'zbek xalq maqollari tarkibidagi antonimlarning leksik-semantik, funksional xususiyatlarini o'rganish shu xalq madaniyati, dunyoqarashi, qadriyatlar haqida muhim ma'lumotlar berishi bilan, qolaversa, o'zbek tili leksikologiyasi, semasiologiyasiga doir bir qancha xulosalar bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Shuningdek, antonim, sinonim lug'atlarni va leksemalarning semantik taraqqiyotiga oid bilimlarni boyitishda muhim manba o'laroq xizmat qiladi.

O'zbek xalq maqollarida kontekstual antonimlarning idrok va talqin masalalari lingvistik, semantik va kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Kontekstual antonimlar situativ holatga qarab ma'no hosil qiladi va talqin qilinadi. Bu jarayon xalq tafakkuri va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq. Maqollar til, ma'no va madaniyat o'rtasidagi uzviy munosabatni aks ettiradi, tilshunoslik va kognitiv lingvistika uchun muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fontaine C.R. Proverbs' Performance in the Hebrew Bible // Wise words: Essay on the proverb. – New York: Garland Publishing, 1994. – P. 393 - 413.
2. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. Toshkent – "Talqin" – 2005. 171-b.
3. Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкрац, Л.Г. Лузина. Под общей ред. Е.С. Кубряковой. – М.: Филологический факультет МГУ им. М.В. Ломоносова, 1996. – 245 с.
4. Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: МГУ, 1996а. – С.90-93.
5. Левин Ю.И. Провербиальное пространство // Паремнологические исследования. Сб. статей. – М.: Наука, 1984. – С.108 – 126.
6. Миртожиев М. Хозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, 2004.
7. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Хозирги ўзбек тили. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

Rasulova Azizaxon Muydinovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, FarDU dotsenti ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6591-0521>
azizakhon.rasulova@gmail.com



TILSHUNOSLIKDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING YADRO-PERIFERIYA MUNOSABATI

<https://zenodo.org/records/18728962>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida sintaktik birliklar funksional-maydon yondashuvi asosida yadro va periferiya munosabatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda sintaktik kategoriyalarning markaziy va chekka qatlamlari aniqlanib, ularning nutqiy faolligi, kommunikativ yuklamasi va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Sodda va murakkab gaplar, to'liqsiz hamda elliptik konstruksiyalar izohlanadi.